

**SAMARQAND AGROINNOVATSIYALAR VA TADQIQOTLAR  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.05/28.08.2024.QX.182.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QORAQALPOG‘ISTON QISHLOQ XO‘JALIGI VA  
AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**

**ALIMBETOV DOSBERGEN USENOVICH**

**EKISH MUDDATI VA ME‘YORLARINING TAKRORIY  
EKIN SIFATIDA TARIQ (*PANICUM MILIACEUM L.*)NING O‘SISHI,  
RIVOJLANISHI VA HOSILDORLIGIGA TA‘SIRI  
(Qoraqalpog‘istonning o‘rtacha sho‘rlangan tuproqlari sharoitida)**

**06.01.08 – O‘simlikshunoslik**

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2025**

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по сельскохозяйственным наукам**

**Sontents of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on agricultural sciences**

**Alimbetov Dosbergen Usenovich**

Ekish muddati va me‘yorlarining takroriy ekin sifatida tariq  
(*Panicum miliaceum L.*)ning o‘sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta’siri  
(Qoraqalpog‘istonning o‘rtacha sho‘rlangan tuproqlari sharoitida) ..... 3

**Алимбетов Досберген Усенович**

Влияние сроков и норм высева на рост, развитие и урожайность  
проса (*Panicum miliaceum L.*) как повторной культуры  
(в условиях среднесоленых почв Каракалпакстана) ..... 21

**Alimbetov Dosbergen Usenovich**

Effect of sowing dates and rates on the growth, development and  
productivity of proso millet (*panicum miliaceum l.*) as a repeated crop  
(under the conditions of moderately saline soils of Karakalpakstan) ..... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 45

**SAMARQAND AGROINNOVATSIYALAR VA TADQIQOTLAR  
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMY DARAJA BERUVCHI  
PhD.05/28.08.2024.QX.182.01 RAQAMLI ILMY KENGASH**

---

**QORAQALPOG‘ISTON QISHLOQ XO‘JALIGI VA  
AGROTEXNOLOGIYALAR INSTITUTI**

**ALIMBETOV DOSBERGEN USENOVICH**

**EKISH MUDDATI VA ME‘YORLARINING TAKRORIY  
EKIN SIFATIDA TARIQ (*PANICUM MILIACEUM L.*)NING O‘SISHI,  
RIVOJLANISHI VA HOSILDORLIGIGA TA‘SIRI  
(Qoraqalpog‘istonning o‘rtacha sho‘rlangan tuproqlari sharoitida)**

**06.01.08 – O‘simlikshunoslik**

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Qx1399 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.samaguni.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Qosnazarov Qudaybergen Aytmambetovich  
qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:** Yodgorov Normumin G'ulomovich  
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Xudoyqulov Jonibek Bozorovich  
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot** Qoraqalpog'iston dehqonchilik ilmiy tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti huzuridagi PhD.05/28.08.2024.Qx.182.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «30» 05 soat 16<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 141001, Samarqand viloyati, Oqdaryo tumani, Dahbet qo'rg'oni, A.Temur ko'chasi 7-uy. SamATI Tel: (+99866) 492-81-16; faks: (+99866) 492-81-16; e-mail: info@samaguni.uz; Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti bosh binosi, 2-qavat, kichik majlislar zali).

Dissertatsiya bilan Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 4 – raqami bilan ro'yxatga olingan). (141001, Samarqand viloyati, Oqdaryo tumani, Dahbet qo'rg'oni, A.Temur ko'chasi 7-uy. SamATI Tel: (+99866) 492-81-16).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «15» 05 kuni tarqatildi.  
(2025-yil «17» 04 da 5 – raqamli reyestr bayonnomasi).

  
Sh.X.Rizayev  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash raisi, q.x.f.d., dotsent  
I.X.Amanturdiyev  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, q.x.f.f.d., dotsent.  
S.T.Sanayev  
Ilmiy daraja beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, q.x.f.d., professor.

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Tariq (*Panicum miliaceum L.*) qimmatli donli ekinlaridan bo‘lib, “dunyoda 80 ga yaqin davlatlarda 32,2 mln.ga maydonda yetishtirilib, o‘rtacha don hosili 10,06 s/ga, yalpi hosil 34,29 mln. tonnani tashkil etadi”<sup>1</sup>. “Tariq yetishtirish bo‘yicha Hindiston (13,50 mln.t), Niger (3,34 mln.t), Xitoy (2,70 mln.t), Mali (1,94 mln.t), Nigeriya (1,55 mln.t), Senegal (1,35 mln.t) yetakchi davlatlar hisoblanadi”<sup>2</sup>. Tariq ekini tuproq sho‘rlanishi, qurg‘oqchilik va issiqlikka chidamli bo‘lib, dunyoning iqlimi keskin esib borayotgan mintaqalarida oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashda tuproq-iqlim sharoitlariga mos tariq yetishtirish agrotexnologiyalarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Dunyoda tariq yetishtiruvchi ko‘plab mintaqalarda serhosil yangi navlarni yaratish, turli komponentli mikro va makro o‘g‘itlar yordamida ildizdan tashqari oziqlantirish, tuproqqa turli mini va No-till ishlov berish kabi ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash hisobiga don hosildorligini oshirishga alohida e‘tibor berilmoqda. Shuningdek, iqlimning global o‘zgarib borayotgan sharoitida, qurg‘oqchilik va suv tanqisligi kuzatilayotgan tuproq-iqlim mintaqalarda tariq yetishtirishda maqbul ekish muddati va me‘yorlarini ishlab chiqish hamda ishlab chiqarishga joriy etish don yetishtirishda sohada muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Bu borada, respublikamizning iqlim sharoiti noqulay bo‘lgan shimoliy mintaqasi Qoraqapog‘istonning turli darajada sho‘rlangan tuproqlari sharoitida issiqlik va qurg‘oqchilikka chidamli bo‘lgan tariq ekinidan yuqori don hosili yetishtirishning agrotexnologiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 24 iyundagi “Iqlim o‘zgarishiga nisbatan barqaror agroekotizimni yaratish hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarning iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq xavflarga moslashuvchanligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-233-son qarorida “iqlim o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lgan tabiiy resurslardan samarali foydalanish hamda qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish agrotexnologiyasini takomillashtirish, qurg‘oqchilikka chidamli boshqoli don va ozuqabop ekin navlarini yaratish orqali don va ozuqa ekinlari bazasini mustahkamlash” ustuvor vazifa qilib belgilangan.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublika Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853-son «O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi hamda 2019 yil 17 iyundagi PF-5742-son «Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmonlari, 2021 yil 24 fevraldagi PQ-5006-son «Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan foydalanish va muhofaza qilish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori va mazkur

---

<sup>1</sup><https://www.fao.org/faostat/ru/#data/QCL>

<sup>2</sup><https://www.mundus-agri.eu/news/millet-global-production>

faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqotlari muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Respublika Fan va texnologiyalari rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Respublikamizda tariqni asosiy va takroriy ekin sifatida turli tuproq-iqlim sharoitlarida yetishtirish agrotexnologiyalari bo'yicha X.Atabayeva, N.Xalilov, Sh.Ernazarov, U.Jo'rayev, M.Seytekova, A.Omonovlar, xorijda V.Lisov, I.Yelagin A.Struk, V.Agafonov, Ye.Zaxarova, A.Voronkin, A.Sinko, A.Surkov, S.Yeremin, K.Laxmisha, S.Chander, J.Bodriguezlar tomonidan bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va ijobiy natijalarga erishilgan.

Biroq, Qoraqapog'iston Respublikasining o'rtacha sho'rlangan o'tloqi allyuvial tuproqlari sharoitida takroriy ekin sifatida tariq navlarini ekish muddati va me'yorlari bo'yicha yetarlicha ilmiy izlanishlar olib borilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Nukus davlat pedagogika instituti "Botanika, ekologiya va uni o'qitish metodikasi" kafedrasida ilmiy tadqiqot ishlari rejasining №4-sonli "Qoraqalpog'iston o'simliklar dunyosining floristik tarkibini va bioekologik xususiyatlarini tadqiq qilish" hamda Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti "O'simlikshunoslik, o'rmonchilik va landshaftli dizayn" kafedrasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining №11-sonli "Don va don-dukakli o'simliklarni o'rtacha sho'rlangan tuproqlar sharoitlarida yetishtirish texnologiyasini takomillashtirish" mavzulari doirasida bajarilgan (2019-2024 yy.).

**Tadqiqotning maqsadi** Qoraqapog'iston Respublikasining o'rtacha sho'rlangan o'tloqi-allyuvial tuproqlari sharoitida takroriy ekin yetishtirishga mos tariq navlaridan yuqori don hosili olishni ta'minlaydigan maqbul ekish muddatlari, me'yorlarini ilmiy asoslash va ishlab chiqarishga tavsiyalar berish.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

Qoraqapog'iston Respublikasining o'rtacha sho'rlangan tuproqlari sharoitida takroriy ekin yetishtirish dala unuvchanligi yuqori, amal davri qisqa bo'lgan, hosildor istiqbolli navlarini o'rganish;

takroriy ekin yetishtirish dala unuvchanligi, amal davri oxiridagi o'simliklar soni, rivojlanish davrlari davomiyligiga ekish muddatlari va me'yorlarining ta'sirini aniqlash;

ekish muddatlari va me'yorlarining takroriy ekin yetishtirish dala unuvchanligi, amal davri oxiridagi o'simliklar soni, rivojlanish davrlari davomiyligiga ekish muddatlari va me'yorlarining ta'sirini aniqlash;

takroriy ekin yetishtirish dala unuvchanligi, amal davri oxiridagi o'simliklar soni, rivojlanish davrlari davomiyligiga ekish muddatlari va me'yorlarining ta'sirini aniqlash;

ekish muddatlari va me'yorlarining takroriy ekin yetishtirish dala unuvchanligi, amal davri oxiridagi o'simliklar soni, rivojlanish davrlari davomiyligiga ekish muddatlari va me'yorlarining ta'sirini aniqlash;

takroriy ekinda tariq navlarini turli ekish muddati va me'yorlarida parvarishlashning iqtisodiy samaradorligini tahlil etish hamda tuproq- iqlim sharoitiga mos bo'lgan tariq navlaridan yuqori don hosili olish bo'yicha ishlab chiqarishga tavsiyalar berish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida o'rtacha sho'rlangan o'tloqi – allyuvial tuproqlar, tariqning davlat reyestriga kiritilgan Saratovskoye 853 navi va xorijiy 24 ta nav namunalari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lib, tariq navlarining dala unuvchanligi, rivojlanish davrlari davomiyligi, o'simlik bo'yi, umumiy va mahsuldor poyalar shakllanishi, barglarning shakllanishi, barg yuzasi, quruq modda to'plash dinamikasi, ro'vak uzunligi, ro'vakdagi donlar soni, ro'vakdagi donlar massasi, ekish muddatlari va me'yorlari, don va somon hosildorligi hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotlarda dala va ishlab chiqarish tajribalarini qo'yish, laboratoriya tahlillari, fenologik kuzatuvlar, biometrik o'lchashlar «Dala tajribalarini o'tkazish uslublari», «Методика полевого опыта», «Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур» va «Методы агрохимических, агрофизических и микробиологических исследований в поливных хлопковых районах» uslubiy qo'llanmalari asosida olib borilgan. Tadqiqotdan olingan natijalar matematik-statistik tahlili Microsoft Excel dasturi yordamida B.A.Dospexov uslubi asosida bajarilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor Qoraqapog'istonning o'rtacha sho'rlangan o'tloqi – allyuvial tuproqlari sharoitida takroriy ekinda tariq navlari parvarishlanib, tuproq-iqlim sharoitiga mos bo'lgan, dala unuvchanligi yuqori, o'suv davri qisqa, hosildor navlari ajratilib, tariq navlarining o'sishi va rivojlanishi uchun qulay bo'lgan maqbul ekish muddatlari va me'yorlari ishlab chiqilgan;

o'rtacha sho'rlangan o'tloqi – allyuvial tuproqlar sharoitida o'suv davri davomiyligi qisqa (76-79 kun), dala unuvchanligi (86,7-89,8 %), don hosili yuqori (25,7-29,1 s/ga) bo'lgan tariqni Saratovskoye 853 va Songin 1 navlarini takroriy ekinda yetishtirishga mos ekanligi ilmiy asoslangan;

o'rtacha sho'rlangan tuproqlar sharoitida tariqni Saratovskoye 853 va “Songin 1” navlarini takroriy ekinda ekishni 10-15 iyun muddatida ekish 20-25 iyun muddatiga nisbatan amal davri oxirida saqlanib qolgan o'simliklar sonini tegishli 1,2-1,8; 1,1-2,2 %, 01-05 iyul muddatiga nisbatan 1,7-3,2; 1,0-2,9 %, 3,0 mln. donaga me'yorida ekish 3,5 mln. dona/ga nisbatan 1,0-1,5; 1,6-2,7 % ga yuqori bo'lishi isbotlangan;

tariqning Saratovskoye 853 va xorijiy Songin 1 navlari takroriy ekinda 10-15 iyun muddatida parvarishlanganda o'simlik bo'yi (113,7-122,3; 121,7-131,6 sm), shoxlanishi (3,6-4,2; 3,8-4,7 tup/dona), barglar soni (5,6-6,4; 6,2-7,0 dona), barg yuzasi (170,5-200,6; 183,1-213,4 sm<sup>2</sup>), quruq modda to'plashi (45,63-51,08; 47,62-53,38 s/ga) ko'p va yuqori bo'lib, ekishni 10-15 iyun muddatidan 20-25 iyun va 01-05 iyul muddatiga kechiktirib borilishi o'suv davrini Saratovskoye 853 navida 4-8; 11-15 kunga, Songin 1 navida 2-6; 7-13 kunga, ekish me'yorlarini 2,5 mln.dona/gadan 3,0 va 3,5 mln.dona/ga oshirib borilishi Saratovskoye 853 navida 2-4; 5-9 kunga, Songin 1 navida 4-6; 4-8 kunga qisqa bo'lishi ilmiy asoslangan;

tariq navlarini takroriy ekinda 10-15 iyun muddatida, gektariga 3,0 mln.dona me'yorida parvarishlash o'simlikni o'sishi, rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratib, don hosildorligini Saratovskoye 853 navida 27,6 s/ga, Songin 1 navida 29,3 s/ga, sof foyda 5103000; 5762000 so'm/ga, rentabellik darajasi 85,9; 96,7 % yuqori bo'lishi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

Qoraqapog'istonning o'rtacha sho'rlangan o'tloqi-allyuvial tuproqlari sharoitida tariqning davlat reyestriga kiritilgan Saratovskoye 853 va xorijiy Songin 1 navlarini takroriy ekinda parvarishlash agrotexnikasining (ekish muddatlari va ekish me'yorlari) ayrim elementlari ishlab chiqilgan.

Qoraqapog'istonning o'rtacha sho'rlangan o'tloqi – allyuvial tuproqlari sharoitida takroriy ekinda tariq navlarini 10-15 iyun muddatida gektariga 3,0 mln.dona me'yorida ekib parvarishlash o'simlikning o'sishi, rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratib, amal davri oxirida saqlanib qolgan o'simliklar miqdori (223,9; 223,6 m<sup>2</sup>/dona), mahsuldor poyalar soni (250,5; 284,1 m<sup>2</sup>/dona), hosil elementlarini (ro'vak uzunligi 26,7; 28,6 sm, ro'vakdagi donlar soni 526,6; 560,1 dona, ro'vakdagi don massasi 1,63; 1,97 g., 1000 dona don massasi 7,22; 7,58 g.) yuqori bo'lishini ta'minlagan.

o'rtacha sho'rlangan o'tloqi – allyuvial tuproqlari sharoitida takroriy ekinda tariqning Saratovskoye 853 va xorijiy Songin 1 navlarida ekish muddati 10-15 iyun bo'lib, gektariga 3,0 mln.dona me'yorida ekib parvarishlanganda don hosildorligi 27,6; 29,3 s/gani, qo'shimcha don hosili ekish muddatiga nisbatan 1,5; 2,6 s/gani, ekish me'yoriga nisbatan 3,0; 3,8 s/ga tashkil etib, yuqori iqtisodiy samaradorlikni (rentabellik darajasi 85,9; 96,7 %) ta'minlagan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dala tajribalari, laboratoriya tahlillari, fenologik kuzatuvlar va biometrik o'lchashlar umumqabul qilingan uslublarda o'tkazilganligi, tadqiqot natijalaridan olingan ma'lumotlar dispersion tahlil usuli bilan matematik-statistik ishlov berilganligi, tadqiqotlar aprobeziyadan o'tkazilib, mutaxassislar tomonidan ijobiy baholanganligi, tadqiqotlarda olingan natijalar ishlab chiqarishda sinovdan o'tkazilganligi, nazariy va amaliy natijalarning bir-biriga mos kelishi, olingan natijalar asosida respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilinganligi, dissertatsiya natijalari O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan e'tirof etilgan ilmiy nashrlarda chop etilganligi natijalarning ishonchliligini ko'rsatadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Qoraqapog'istonning o'rtacha sho'rlangan o'tloqi-allyuvial tuproqlari sharoitida takroriy ekinda tariqning Saratovskoye 853 va xorijiy Songin 1 navlaridan yuqori don hosili yetishtirishda maqbul ekish muddatlari va ekish me'yorlari ishlab chiqilgan. Tariq navlarini takroriy ekinda dala unuvchanligi, amal davri oxirida saqlanib qolgan o'simliklar soni, rivojlanish davrlari davomiyligi, umumiy va mahsuldor poyalar soni, bir tup o'simlikdagi ro'vak uzunligi, ro'vakdagi donlar soni, ro'vakdagi don massasi, 1000 dona don massasi, don va somon hosildorligining ekish muddatlari va ekish me'yorlariga bog'liqligi ilmiy asoslangan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, o'rtacha sho'rlangan o'tloqi-allyuvial tuproqlari sharoitida takroriy ekinda tariqning

Saratovskoye 853 va xorijiy Songin 1 navlarini maqbul ekish muddati va me'yorlari aniqlanib, ulardan yuqori don hosili yetishtirishning agrotexnikasi ishlab chiqilgan. Ushbu agrotexnologiya Qoraqalpog'iston sharoitida dehqon va fermer xo'jaliklariga joriy etilishi orqali yuqori don hosili va iqtisodiy samaradorlikni oshganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Qoraqalpog'iston Respublikasining o'rtacha sho'rlangan o'tloqi allyuvial tuproqlari sharoitida takroriy ekinda ekish muddati va ekish me'yorlarining tariq navlari o'sishi, rivojlanishi va don hosildorligiga ta'siri bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

tariq navlarini takroriy ekinda ekish muddati va ekish me'yorlari bo'yicha "Qoraqalpog'istonning o'rtacha sho'rlangan tuproqlari sharoitida takroriy ekinda tariq yetishtirish bo'yicha tavsiyanoma" ishlab chiqilgan va tasdiqlangan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2024 yil 11-martdagi 02/017-707-son ma'lumotnomasi). Ushbu tavsiyanoma dehqon va fermer xo'jaliklarida takroriy ekinda tariq yetishtirishda qo'llanma sifatida keng foydalanilmoqda;

Qoraqalpog'iston Respublikasining o'rtacha sho'rlangan o'tloqi allyuvial tuproqlar sharoitida tariqning Saratovskoye 853 va Songin 1 navlarini ekish muddati 10-15 iyunda, ekish me'yori gektariga 3,0 mln.dona (urug'lik sarfi Saratovskoye 853 navida 22 kg/ga, Songin 1 navida 23 kg/ga) tavsiyaga asosan yetishtirish agrotexnologiyasi mintaqaning Chimboy (9,6 ga), Qorao'zak (8,5 ga), Nukus (5,6 ga) tumanlarida, jami 23,7 gektar maydonda joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2024 yil 11-martdagi 02/017-707-son ma'lumotnomasi). Natijada, tariq navlari shu muddatda ekilib, ekish me'yori 2,5 mln.dona/ga hamda 20-25 iyun muddatida 2,5-3,0 mln.dona/ga me'yorida ekilganga nisbatan Saratovskoye 853 navidan 1,2-3,2 s/ga, xorijiy Songin 1 navidan 1,6-2,8 s/ga qo'shimcha don hosili olingan.

Qoraqalpog'iston Respublikasining o'rtacha sho'rlangan o'tloqi allyuvial tuproqlar sharoitida takroriy ekinda tariq navlarini ekish 10-15 iyun muddatida, gektariga 3,0 mln.dona me'yorida ekib parvarishlash agrotexnologiyasi mintaqaning Chimboy, Qorao'zak, Nukus tumanlarida, jami 23,7 gektar maydonda joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2024 yil 11-martdagi 02/017-707-son ma'lumotnomasi). Buning natijasida, ushbu ekish muddati va ekish me'yorida parvarishlanganda tariqni Saratovskoye 853 navidan gektaridan 3,14-4,07 mln.so'm sof foyda, 61,2-69,6 foiz rentabellik darajasiga, Songin 1 navidan 3,84-4,81 mln.so'm sof foyda, 68,4-82,0 foiz rentabellik darajasiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari har yili Nukus davlat pedagogika instituti hamda Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institutining maxsus komissiyasi tomonidan aprobatsiyadan o'tkazilib, ijobiy baholangan, ishning asosiy ilmiy natijalari bo'yicha 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy anjumanlarida ma'ruzalar qilingan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga

tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifasi hamda obyekti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ishlab chiqarishga joriy etilganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tariqni xalq xo'jaligidagi ahamiyati, turli tuproq-iqlim sharoitlarida yetishtirish agrotexnologiyalarining o'sishi, rivojlanishi va don hosildorligiga ta'siri bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar sharhi”** deb nomlangan birinchi bobida tariq ekinining kelib chiqishi, turlari, biologik xususiyatlari, xalq xo'jaligidagi ahamiyati, turli tuproq-iqlim sharoitlarida ekish muddatlari va me'yorlarning o'sishi, rivojlanishi va don hosildorligiga ta'siri bo'yicha respublikamiz va xorijda o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot o'tkazish joyi, tuproq-iqlim sharoitlari va qo'llanilgan uslublar”** deb nomlangan ikkinchi bobida tajriba o'tkazilgan Qoraqalpog'iston Respublikasining tuproq-iqlim sharoitlari, tadqiqot o'tkazish uslublari, tariq yetishtirishda o'tkazilgan agrotexnologik tadbirlar keltirilgan.

Dala tajribalari o'tkazilgan (2019-2024 yy.) Qoraqalpog'iston Respublikasi Chimboy tumani, “Dosbergen Qosbergen” fermer xo'jaligi tuproqlari o'rtacha sho'rlangan, xlorid –sulfatli sho'rlanish tipiga mansub, o'tloqi-allyuvial tuproqlar bo'lib, sizot suvlari 1,5-2,5 m.da joylashgan. Tuproqning haydalma 0-30 sm qatlamida gumus miqdori 0,77 %, 30-50 sm.da 0,65 %, harakatchan shakldagi azot bilan juda kam (14,1 mg/kg), fosfor (15,3 mg/kg) va kaliy (108 mg/kg) bilan kam ta'minlangan. Umumiy azot miqdori 0-30 sm.da 0,061 %, haydov osti 30-50 sm.da 0,046 % ni tashkil etgan. Tuproq muhiti kuchsiz ishqoriy pH=7,58-7,65 ga teng.

Qoraqalpog'iston Respublikasi iqlim sharoitiga ko'ra, shimoldan janubga yo'nalgan sovuq shamollardan himoya qiluvchi to'siqlarning bo'lmasligi, yozning quruq, issiq, qishi sovuq bo'lishi bilan ajralib turadi. Havо haroratining eng issiq bo'lishi iyul oyida, o'rtacha +44,5°C, eng sovuq yanvar oyida 27°C ni tashkil etadi. Yog'in miqdori juda kam, asosan bahor va qish oylarida o'rtacha 85-120 mm, yerdan bug'lanadigan suvning miqdori yog'in-sochin bilan taqqoslaganda 10-15 marta yuqoridir. Havoning nisbiy namligi eng kam davri iyun-oktyabrda 15-25 %, eng yuqori bo'lishi 60-75 % dekabr-mart oylariga to'g'ri keladi.

Tadqiqotlarda tariqning xorijiy 24 ta nav namunalarining o'sishi, rivojlanishi o'rganilib, istiqbollisi (Songin 1 navi) ajratib olinib, xorijiy Songin 1 navi bilan tariqni davlat reyestriga kiritilgan Saratovskoye 853 navining o'sishi, rivojlanishi

va don hosildorligiga ekish muddatlari (10-15.06; 20-25.06; 01-05.07) va ekish me'yorlarining (2,5; 3,0; 3,5 mln.dona/ga) ta'siri o'rganilgan.

Dissertatsiyaning **“O'rtacha sho'rlangan tuproqlarda tariq navlarining takroriy ekinda o'sishi, rivojlanishi va don hosildorligini o'rganish”** deb nomlangan uchinchi bobida tariq nav namunalari takroriy ekinda dala unuvchanligi, amal davri oxiridagi o'simliklar soni, o'sishi, rivojlanishi, hosil elementlarini shakllanishi va don hosildorligi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.


Dala tajribalarida tariqning davlat reyestriga kiritilgan Saratovskoye 853 navi va xorijdan keltirilgan 24 nav namunalari takroriy ekin sifatida kuzgi bug'doy ang'izida ekib o'rganilgan. Tajribada tariq nav namunalari urug'lari unib chiqishi ekilgandan so'ng, 3, 5, 7 kunlari aniqlangan. Tajribada ekishdan so'ng, 7-kunida tariqni barcha nav namunalari to'liq unib chiqqanligi qayd etilib, dala unuvchanligi bo'yicha eng past ko'rsatkichlar xorijiy Wooljin 1, Chongsong 2, Bobun 4, Jbweon, Yovnedvk, Yongil 3, Chongsong 3, Chongnyoung, HS 84-3, Hamvand, Vising 1, Vising 2, Yongil 4, Poun 1, 75001, 75008, Songin 2, Youngji 3, Mungyeong 3 nav namunalarda 31,3-62,3 % tashkil etgan bo'lsa, eng yuqori dala unuvchanligi Saratovskoye 853 (st) navida 89,8 %, xorijiy nav namunalar HC 7 - 85,0; Yongil 3 - 84,5; Vising 2- 84,8; Yongil 4 - 83,2; Suwon 5 F2 - 85,8; Songin 1 - 86,7; Yongvangda -84,7 % ni tashkil etgan.

Tajribada o'rganilgan tariq nav namunalarining takroriy ekinda dala unuvchanligi eng yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etgan Saratovskoye 853 (st) navi, xorijiy HC 7, Yongil 3, Vising 2, Yongil 4, Youngji 3, Suwon 5 F2, Songin 1, Yongvang nav namunalarini keyingi o'sishi, rivojlanish ko'rsatkichlarida fenologik va biometrik hamda hosildorlik ko'rsatkichlari hisobga olingan.

Tajribada amal davri oxirida saqlanib qolgan o'simliklar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar Saratovskoye 853 (st) navida -84,7 %, nobud bo'lgan o'simliklar 15,3 %, xorijiy nav namunalarida tegishlicha: Suwon 5 F2 -84,3 va 15,7 %; Songin 1 -87,6 va 12,4 %; Yongvang -85,4 va 14,6 % bo'lganligi qayd etilib, eng past ko'rsatkichlar HC 7 da - 77,4 %, nobud bo'lgan o'simliklar 22,6 %; Yongil 3 da tegishlicha: 69,3 va 30,7 %; Vising 2- 74,6 va 25,4 %; Yongil 4 -64,6 va 35,4 % bo'lganligi hisobga olingan. O'suv davri Saratovskoye 853 (st) navida 76-79 kunni, xorijiy nav namunalarida esa, eng qulay va qisqa davrda to'liq pishish Songin 1 va HC 7 nav namunalarida 74-77 va 80-84 kun, Suwon 5 F2, Yongvang, Yongil 3, Vising 2 va Yongil 4 nav namunalarida 90-93; 88-92; 86-91; 84-89 va 87-92 kunni tashkil etib, gullash-to'liq pishish davri havo haroratining pasayib, sovuq kunlarga to'g'ri kelib, donlarning to'liq pishib yetilmaganligi qayd etilgan.

Tariqning Saratovskoye 853 (st) navida o'simlik bo'yi 122,9 sm, eng yuqori bo'yi o'simliklar Suwon 5 F2, Songin 1 va Yongvangda, tegishlicha 129,4; 134,3 va 129,7 sm, HC 7, Yongil 3, Vising 2 va Yongil 4 namunalarida esa, o'simlik bo'yi pastroq, tegishlicha: 105,8; 90,4; 118,1 va 102,4 sm.ni, Saratovskoye 853 (st) navida 1 ta o'simlikdagi bo'g'inlar soni 6,2 dona, shoxlanishi-4,2 tup/dona, barglar soni-6,2 dona, barg uzunligi-30,3 sm, bargning eni-1,4 sm, barg yuzasi-176,2 sm<sup>2</sup>, xorijiy nav namunalarida yuqori ko'rsatkichlar Suwon 5 F2, Songin 1 va Yongvangda tegishlicha: 6,6; 7,1; 6,3 dona, 4,9; 4,6; 4,5 tup/dona, 6,6; 7,1; 6,3 dona, 30,2; 31,4; 29,9 sm, 1,3; 1,3; 1,3 sm, 173,6; 194,1; 164,0 sm<sup>2</sup>ni tashkil etgan.

Saratovskoye 853 (st) navida umumiy poyalar soni 263,1-293,3 m<sup>2</sup>/dona, mahsuldor poyalar 207,9-234,4 m<sup>2</sup>/donani, xorijiy nav namunalari Suwon 5 F2, Songin 1 va Yongvangda eng ko‘p miqdorda umumiy va mahsuldor poyalar shakllanib, tegishlicha: 262,3-284,5 va 204,5-238,4 m<sup>2</sup>/dona; 310,0-334,2 va 251,5-273,0 m<sup>2</sup>/dona, 278,3-298,8 va 242,9-247,6 m<sup>2</sup>/dona bo‘lganligi aniqlangan. Bu ko‘rsatkichlar HC 7 da 210,3-235,8 va 147,9-174,4 m<sup>2</sup>/dona, Yongil 3 da 159,6-200,4 va 100,6-160,8 m<sup>2</sup>/dona, Vising 2 da 210,8-226,7 va 143,9-159,3 m<sup>2</sup>/dona, Yongil 4 da 113,6-171,9 va 72,0-99,5 m<sup>2</sup>/donani tashkil etgan. Shuningdek, Saratovskoye 853 (st) navida 1 ta o‘simlikdagi ro‘vak uzunligi o‘rtacha 26,7-30,3 sm, 1 ta ro‘vakdagi donlar soni 498,3-527,3 dona, 1000 dona don massasi 6,12-7,06 g.ni tashkil etib, xorijiy nav namunalari eng yuqori ko‘rsatkichlar Songin 1 namunasida kuzatilib, tegishlicha: 30,8-33,6 sm, 535,3-563,6 dona, 7,18-7,64 g. bo‘lganligi hisobga olingan.



Takroriy ekinda o‘rganilgan tariq navlarida eng yuqori don hosili Saratovskoye 853 (st) va xorijiy Songin 1 nav namunasidan o‘rtacha uch yilda (2019-2021 yy.) tegishlicha gektaridan 25,7 va 29,1 s ni tashkil etib, bu HC 7 da - 19,8 s/ga, Vising 2 da – 18,1 s/ga, Yongil 4 da – 17,2 s/ga bo‘lib, eng past ko‘rsatkichlar Yongil 3 da – 14,6 s/ga, Suwon 5 F2 da – 13,7 s/ga, Yongvang da – 14,7 s/ga ni tashkil etib, Saratovskoye 853 (st) navidan 5,9-12,0 s/ga, xorijiy Songin 1 nav namunasidan 9,3-15,4 s/ga kam don hosili olinganligi qayd etilgan.

Dissertatsiyaning **“Qorqalpog‘istonning o‘rtacha sho‘rlangan yerlarida tariq navlarini takroriy ekinda ekish muddatlari va me‘yorlarining o‘sishi, rivojlanishi va don hosildorligiga ta‘siri”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida takroriy ekinda tariqni davlat reyestriga kiritilgan Saratovskoye 853 navi va o‘rganilgan xorijiy nav namunalari orasida yuqori don hosili bergan Songin 1

navini Qoraqalpog'istonning o'rtacha sho'rlangan tuproqlari sharoitida ekish muddatlari va me'yorlarining o'sishi, rivojlanishi va don hosildorligiga ta'siri bo'yicha tahlillar keltirilgan. Dala tajribalarida barcha variantlarida urug'larning unib chiqishi ekishdan oldin yetarli namlik va harorat bo'lganligi uchun turli ekish muddatlari (10-15.06; 20-25.06; 01-05.07) va ekish me'yorlari (2,5; 3,0; 3,5 mln.dona/ga) bo'yicha dala unuvchanligi Saratovskoye 853 navida 86,6-88,6 %, Songin 1 nav namunasida 85,8-87,4 % ni tashkil etgan.

Birinchi muddatda (10-15.06) ekilganda tariq navlarida amal davri oxirida saqlanib qolgan o'simliklar soni 20-25 iyun va 01-05 iyulga nisbatan ko'proq bo'lganligi qayd etilib, Saratovskoye 853 navida tegishli: 192,9-257,8 m<sup>2</sup>/dona, nobud bo'lgan o'simliklar 12,2-16,0 % ni, bu ko'rsatkichlar nazorat 20-25 iyunda tegishli: 189,9-253,1 m<sup>2</sup>/dona, 14,0-17,2 % bo'lib, 10-15 iyunga nisbatan 1,2-1,8 % ga kam qolgan bo'lsa, 01-05 iyulda tegishli: 190,7-250,9 m<sup>2</sup>/dona, 13,4-17,7 % bo'lib, 10-15 iyunga nisbatan 1,7-3,2 % ga o'simliklar kam bo'lganligi aniqlangan. Songin 1 navida ekish 10-15 iyunda amal davri oxirida saqlanib qolgan o'simliklar 189,9-253,7 m<sup>2</sup>/dona yoki nobud bo'lgan o'simliklar 13,1-16,3 %, bu ikkinchi (20-25.06) va uchinchi (01-05.07) ekish muddatlariga nisbatan tegishli: 1,1-2,2 va 1,0-2,9 % ko'proq o'simlik saqlanib qolganligi aniqlangan.

Tajribada Saratovskoye 853 navida birinchi, ikkinchi va uchinchi ekish muddatlarida 3,0 mln.dona/ga me'yorida ekilganda nobud bo'lgan o'simliklar soni 14,5; 16,1; 16,7 %, saqlanib qolgan o'simliklar 223,9; 223,1; 216,4 m<sup>2</sup>/dona, Songin 1 navida esa tegishli: 13,6; 15,8; 16,5 % va 223,6; 220,2; 214,8 m<sup>2</sup>/dona bo'lib, 3,5 mln.dona/ga ekilganga nisbatan Saratovskoye 853 navida 2,3; 2,1 va 3,3 % (31,0; 33,2 va 25,7 m<sup>2</sup>/dona), Songin 1 navida 2,5; 2,1 va 2,4 % (33,7; 31,9 va 28,5 m<sup>2</sup>/dona) yuqori bo'lgan. Tariq navlarini gektariga 2,5 mln.dona/ga me'yorida ekilganda nobud bo'lgan o'simliklar miqdori kam (navlar bo'yicha tegishli: 12,2; 14,0; 15,4 va 13,1; 13,7; 14,1 %) bo'lgan bo'lsada, ekish me'yori hisobiga saqlanib qolgan o'simliklar soni (192,9; 189,9; 190,7 va 189,9; 188,3; 186,3 m<sup>2</sup>/dona), 3,0-3,5 mln.dona/ga ekilganga nisbatan kam bo'lganligi qayd etilgan.

Tajribada tariq navlarini ekish 10-15 iyundan 20-25 iyun (nazorat) va 01-05 iyulga kechikib borishi va ekish me'yorlarini 2,5 mln.dona/ga (nazorat)dan 3,0 va 3,5 mln.dona/ga oshirib borilishi fazalararo davrni qisqarib borganligi kuzatilgan. Saratovskoye 853 navida 10-15 iyunda o'suv davri 2,5 (nazorat) va 3,0; 3,5 mln.dona/ga tegishli: 79-83 va 77-80; 73-76 kun, 20-25 iyunda tegishli: 74-78 va 71-75; 68-71 kun, 01-05 iyulda tegishli: 68-69 va 64-67; 62-64 kunni tashkil etgan. Xorijiy Songin 1 navida ham ushbu qonuniyatlar qayd etilib, 10-15 iyunda o'suv davri 2,5 (nazorat) va 3,0; 3,5 mln.dona/ga da tegishli: 77-78 va 71-74; 69-70 kun, 20-25 iyunda tegishli: 71-73 va 68-70; 65-67 kun, 01-05 iyulda tegishli: 65-68 va 62-67; 60-63 kunni tashkil etgan. Ekishni 10-15 iyun muddatidan 20-25 iyun va 01-05 iyulga kechikib borishi tariq o'simligida o'suv davrini qisqarib borishi bilan don hosilini pasayib borganligi aniqlangan.

Ekish muddatlari bo'yicha Saratovskoye 853 navida 20-25 iyunda (nazorat) ekilganda tariqni o'suv davri 10-15 iyunda ekilganga nisbatan 4-8 kunga qisqa bo'lgan bo'lsa, 01-05 iyulda ekilganda 11-15 kunga, xorijiy Songin 1 navida 20-25 iyunda (nazorat) 2-6 kunga, 01-05 iyulda ekilganda 7-13 kunga erta pishganligi

aniqlangan. Ekish me'yorlari bo'yicha Saratovskoye 853 navida 3,0 mln.dona/ga ekilganda, 2,5 mln.dona/ga (nazorat) nisbatan 2-4 kunga, 3,5 mln.dona/ga ekilganda 5-9 kunga, xorijiy Songin 1 navida 3,0 mln.dona/gada 3-6 kunga, 3,5 mln.dona/ga da 4-8 kunga o'suv davri qisqarganligi aniqlangan.

Tahlillarga ko'ra, tariqning Saratovskoye 853 navi 10-15 iyunda ekilganda o'simlik bo'yining balandligi 113,7-122,3 sm, bo'g'inlar soni 6,0-6,7 dona, shoxlanishi 3,6-4,2 tup/donani, 20-25 iyunda (nazorat) tegishlica: 98,6-105,6 sm; 5,3-6,1 dona; 3,0-3,7 tup/donani, 01-05 iyulda esa tegishlica: 84,2-91,2 sm; 4,9-5,2 dona; 2,5-3,4 tup/dona bo'lganligi aniqlangan. Saratovskoye 853 navida ekish muddatlari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar 10-15 iyunda kuzatilib, nazorat 20-25 iyunda ekilganga nisbatan o'simlik bo'yi 15,1-16,7 sm, bo'g'inlar soni 0,6-0,7 donaga, shoxlanishi 0,5-0,6 tup/donaga, 01-05 iyulga nisbatan tegishlica: 28,8-31,1 sm, 1,1-1,5 donaga, 0,8-1,1 tup/donaga yuqori bo'lgan. Xorijiy Songin 1 navida ham mazkur qonuniyatlar kuzatilib, ekish muddatlari bo'yicha 10-15 iyunda ekilganda 20-25 iyunga nisbatan tegishlica: 7,9-8,5 sm, 0,4-0,8 dona, 0,4-0,6 tup/donaga, 01-05 iyulda ekilganga nisbatan tegishlica: 26,4-29,0 sm.ga, 1,4-1,5 donaga, 1,0-1,2 tup/donaga ko'p va yuqori bo'lgan.

Ekish me'yorlari bo'yicha Saratovskoye 853 navida 2,5 (nazorat) mln.dona/ga dan 3,0 mln.dona/ga ga oshirilishi o'simlik bo'yini 6,2; 4,9; 3,9 sm.ga, 3,5 mln.dona/ga ga oshirilishi esa 8,6; 7,0; 7,0 sm.ga, tegishlica bo'g'inlar sonini 0,5; 0,5; 0,2 va 0,7; 0,8; 0,3 donaga, shoxlanishini 0,4; 0,4; 0,5 va 0,6; 0,7; 0,9 tup/donaga, Songin 1 navida esa tegishlica: o'simlik bo'yini 6,4; 4,7; 4,4 va 9,9; 9,3; 7,3 sm, bo'g'inlar sonini 0,3; 0,4; 0,4 va 0,6; 1,0; 0,6 donaga, shoxlanishini 0,5; 0,4; 0,4 va 0,9; 0,7; 0,7 tup/donaga ko'p bo'lgan.

Tariqning Saratovskoye 853 navida 10-15 iyunda ekilganda umumiy poyalar soni 272,7-324,4 m<sup>2</sup>/dona; mahsuldor poyalar 227,4-250,5 m<sup>2</sup>/donani, 20-25 iyunda (nazorat) tegishlica: 248,0-307,4 va 201,2-229,8 m<sup>2</sup>/donani, 01-05 iyulda esa, tegishlica: 216,3-251,2 va 171,3-187,9 m<sup>2</sup>/donani tashkil etgan. Xorijiy Songin 1 navida 10-15 iyunda ekilganda umumiy poyalar soni 286,2-356,5 m<sup>2</sup>/dona; mahsuldor poyalar 244,1-284,1 m<sup>2</sup>/donani, 20-25 iyunda (nazorat) tegishlica: 264,1-322,4 m<sup>2</sup>/dona; 219,6-248,8 m<sup>2</sup>/donani, 01-05 iyulda esa, 226,3-275,0 m<sup>2</sup>/dona; 180,7-195,6 m<sup>2</sup>/dona bo'lganligi qayd etilgan.

Ekish muddatlari bo'yicha o'simlikda umumiy poyalar va mahsuldor poyalarning shakllanishida eng yuqori ko'rsatkichlar 10-15 iyun muddatida ekilganda Saratovskoye 853 navida (nazorat) 20-25 iyun (nazorat)ga nisbatan umumiy poyalar soni 17,0-24,7 m<sup>2</sup>/dona; mahsuldor poyalar 14,6-26,2 m<sup>2</sup>/donani, 01-05 iyulga nisbatan tegishlica: 56,4-73,2 va 56,1-76,8 m<sup>2</sup>/donaga yuqori bo'lib, xorijiy Songin 1 navida bu ko'rsatkichlar 20-25 iyun (nazorat)ga nisbatan tegishlica: 22,1-34,1 va 24,5-35,3 m<sup>2</sup>/donaga, 01-05 iyulga nisbatan tegishlica: 59,9-81,5 va 63,4-88,5 m<sup>2</sup>/donaga ko'p miqdorda shakllanganligi aniqlangan.

Don hosildorligini ta'minlovchi 1 m<sup>2</sup> dagi shakllangan mahsuldor poyalar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichlar 3,0 mln.dona/ga me'yorida ekilganda shakllanib, bu Saratovskoye 853 navida nazorat 2,5 va 3,5 mln.dona/ga me'yorida ekilganga nisbatan tegishlica: 23,1; 28,6; 16,6 m<sup>2</sup>/donaga, 12,8; 24,4; 7,9

m<sup>2</sup>/donaga, xorijiy Songin 1 navida esa, tegishlixa 40,0; 29,2; 14,9 va 31,4; 28,3; 8,5 m<sup>2</sup>/donaga ko‘p bo‘lishiga zamin yaratgan.

Tariqning Saratovskoye 853 va xorijiy Songin 1 navlari takroriy ekinda parvarishlanganda ekish muddatlarining 10-15 iyun muddatidan 20-25 iyun (nazorat), 01-05 iyul muddatiga kechikib borishi barglarning shakllanishi va barg yuzasi bo‘yicha ko‘rsatkichlar pasayib borganligi qayd etilgan (1-jadval).

### 1-jadval

#### Ekish muddatlari va me‘yorlarining tariq navlari barglarining shakllanishi va barg yuzasiga ta’siri, o‘rtacha 2022-2024 yy.

T/r	Ekish muddati	Ekish me‘yori, mln.dona/ga	Bir tup o‘simlikdagi ko‘rsatkichlar			
			O‘simlikdagi barglar soni, dona	Barg uzunligi, sm	Barg eni, sm	Barg yuzasi, sm <sup>2</sup>
Saratovskoye 853 navi						
1	10-15.06	2,5 (nazorat)	6,4	31,2	1,5	200,6
2		3,0	5,9	30,7	1,5	182,0
3		3,5	5,6	30,3	1,5	170,5
4	20-25.06 (nazorat)	2,5 (nazorat)	5,7	30,3	1,5	173,5
5		3,0	5,4	29,8	1,4	150,9
6		3,5	5,1	29,4	1,4	140,6
7	01-05.07	2,5 (nazorat)	5,1	28,4	1,3	126,1
8		3,0	4,9	27,8	1,3	118,6
9		3,5	4,9	26,8	1,2	105,6
Songin 1 navi						
10	10-15.06	2,5 (nazorat)	7,0	32,5	1,4	213,4
11		3,0	6,6	32,0	1,4	198,1
12		3,5	6,2	31,5	1,4	183,1
13	20-25.06 (nazorat)	2,5 (nazorat)	6,4	31,2	1,4	187,2
14		3,0	6,1	30,5	1,3	162,0
15		3,5	5,7	30,1	1,3	149,4
16	01-05.07	2,5 (nazorat)	5,5	29,9	1,2	132,2
17		3,0	5,2	29,0	1,2	121,2
18		3,5	5,0	27,9	1,2	112,1

Masalan, Saratovskoye 853 navi 10-15 iyunda ekilganda bir tup o‘simlikdagi barglar soni 5,6-6,4 dona, barg uzunligi 30,3-31,2 sm, barg eni 1,5-1,5 sm, barg yuzasi 170,5-200,6 sm<sup>2</sup>ni tashkil etib, bu nazorat 20-25 iyundagiga nisbatan barglar sonini 0,5-0,7 dona, barg uzunligini 0,9-0,9 sm, barg yuzasini 27,1-31,1 sm<sup>2</sup> ga, 01-05 iyulga nisbatan tegishlixa 0,7-1,3 dona, 2,8-3,5 sm, 63,4-74,5 sm<sup>2</sup>ga, xorijiy Songin 1 navida ham 10-15 iyunda ekilganda bir tup o‘simlikdagi barglar soni 6,2-7,0 dona, barg uzunligi 31,5-32,5 sm, barg eni 1,4-1,4 sm, barg yuzasi 183,1-213,4 sm<sup>2</sup> bo‘lib, 20-25 iyundagi (nazorat)ga nisbatan tegishlixa: 0,5-0,6 dona, 1,3-1,5 sm, 26,2-36,1 sm<sup>2</sup>ga, 01-05 iyulga nisbatan esa tegishlixa: 1,2-1,5 dona, 2,6-3,6 sm, 71,0-81,2 sm<sup>2</sup>ga ko‘p va katta bo‘lganligi hisobga olingan.

Tariq navlarida 1 ta o‘simlikdagi barg yuzasining shakllanishi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichlar uchta ekish muddatida ham nazorat 2,5 mln.dona/ga me‘yorida ekilganda hisobga olinib, bu Saratovskoye 853 navida 3,0-3,5 mln.dona/ga me‘yorlarida ekilganga nisbatan tegishlixa: ekish muddatlari

bo'yicha 18,6-30,1; 22,6-32,9; 7,5-20,5 sm<sup>2</sup> ga, Songin 1 navida esa, tegishlich: 15,3-30,3; 25,2-37,8; 11,0-20,1 sm<sup>2</sup> ga katta bo'lganligi qayd etilgan.

Tariqning ikkala navida ham eng yuqori darajada quruq modda to'plash jarayoni to'liq pishish fazasida qayd etilgan. Tariqning Saratovskoye 853 va xorijiy Songin 1 navlarida 10-15 iyunda ekilganda o'simlikni quruq modda to'plashi o'suv davrida 45,63-51,08 va 47,62-53,38 s/ga bo'lgan bo'lsa, 20-25 iyunda (nazorat) ekilganda tegishlich: 39,16-47,81 va 44,16-48,63 s/ga, 01-05 iyulda tegishlich: 32,55-37,65 va 34,78-39,37 s/ga.ni tashkil etib, tariq navlari 10-15 iyunda ekilganda 20-25 iyun va 01-05 iyulga nisbatan 3,27-6,47; 13,08-13,99 va 3,46-5,08; 12,84-14,21 s/ga ko'p miqdorda quruq modda to'plashiga olib kelgan. Ekish me'yorlari bo'yicha eng yuqori o'simlikda quruq modda to'planishi 3,0 mln.dona/ga me'yorida ekilganda qayd etilib, ekish muddatlari bo'yicha Saratovskoye 853 navida 51,08; 47,81; 37,65 s/ga.ni, xorijiy Songin 1 navida esa, 53,38; 48,63; 39,37 s/ga.ni tashkil etganligi qayd etilgan.

